

## „BOBURNOMA“ - ILM UMMONIDAGI JAVOHIR



### Abstract:

Ushbu maqolada O'zbek klassik adabiyotining buyuk siymosi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining bugungi kunga qadar o'z qadr qimmatini yo'qotmay kelayotgan „Boburnoma“ asarining ta'rif va tavsifiga e'tibor qaratilib, bu asarning hayotimizda nechog'liq muhim ekanligi, asar ustidagi izlanishlar haqida so'z boradi. Shu jumladan, Bobur Mirzoning ham sharafli, ham mashaqqatli hayotiga ham nazar tashlanadi, hamda „ilm ummonidagi javohir hisoblanmish „Boburnoma“ kashf etiladi.

### Key words:

„Boburnoma“, Temuriylar, „Xatti Boburiy“, etnografiya, adabiyot, H.U.Ilimenskiy, Haydarobod, Kashmir, Voqeoti Boburiy

### Author of the article:

Nozima Sayfidinova  
Saydullo qizi

### Workspace (Education subject)

O'zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti talabasi

### KIRISH

Bobur – buyuk Temuriylar sulolaning yorqin vakili,

Bobur – otasining bevaqt o'limi sababli 12 yoshida taxtga chiqqan jasur shahzoda,

Bobur – Vatan hijronida kuygan dilpora.

Bobur - „Boburiylar“ sulolasi asoschisi,

Bobur - ilm-u marifatning yolqin mayog'i,

Bobur – ilm ummoniga o'zining „Boburnoma“ nomli javohirini tuhfa etgan buyuk so'z zargari. Malumki, Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlari nafaqat shoh balki, betakror ijodkor sifatida ham mashxurdir. Bu zotni tilga olar ekanmiz, dilimizda o'zgacha faxr tuyg'usi uyg'onadi. Bobur hazratlari shunday allomaki, umr yo'llarining har lahzasi o'rnak, har ruboiy, g'azali qalblarga taskindir. O'zbek klassik adabiyotining yorqin namoyondasi, tarix va geografiya fanlari bilimdoni, XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli ilm namoyondasi hisoblanmish Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining ham shonli ham mashaqqatli hayot yo'lida biz uchun anchagina qimmatli asarlar qoldirib ketgan bo'lsada, ularning barchasi ham bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan ilm xazinalarining o'zi ham qalblarga shifo va ziyo ulasha oladi, Xususan, islom dini asoslarini bayon etuvchi „Mubayyin“, tasavvuf ilmiga oid „Volidiya“, geografik va adabiy xarakterga ega „Boburnoma“ hamda bir qancha ruboiy va g'azallari shular jumlasidandir. Ayniqsa, Bobur Mirzoning o'zi kashf etgan „Xatti Boburiy“ alifbosi tahsinga sazovordir.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Bobur Mirzo yaratgan xazinalar ichra „Boburnoma“ asari o'zbek klassik adabiyoti uchun beqiyos o'ringa egaki, bugungi kungacha bu asar o'zining qadr-qimmatini saqlab kelmoqda. „Boburnoma“ asari Bobur hazratlari ijodidagi eng javohir hisoblanib, bu asar O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi bilan bir qatorda Bobur Mirzoning yigirmadan ortiq sohaga qiziqqanliklari ham yaqqol namoyon bo'ladi. „Boburnoma“ asari shunchalik jozibador va aniqlikda bitilganki, hattoki hindlar ham bu asarni „Ishonchli manba“ sifatida qadrlashar ekan. Bu asar voqealar va joylarning rang-barangligi bilan kishini o'ziga jalb etmasdan qolmaydi. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yaratilgan „Boburnoma“ asari mazmun, g'oya va uslubning go'zalligi bilan XVIII asr sharqshunos olimlarining ham diqqat e'tiborini tortibgina qolmasdan, asar yuzasidan izlanishlar olib borilishiga va asarni boshqa g'arb tillariga tarjima qilinishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, asardagi

tafsilotlar orqali mamlakatlar geografiyasi va tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortgan. Xususan, Pokistonlik bir olim „Boburnoma“ asarini o'rganib chiqqandan so'ng BBC ga bergan interviyusida bu asarni maktablarda darslik sifatida kiritish kerakligi taklifi bilan chiqqan. Olimlar „Boburnoma“ asarini nihoyatda aniqlikda yaratilgan asarlar sirasiga kiritib undagi ma'lumotlardan keng foydalanishgan. So'zimiz isboti sifatida, asardagi „.....kecha kunduz ikki yuz o'n olti ming ko'zni yumib ochquncha bo'lg'ay“ ma'lumotini olaylik. Hozirgi kundagi zamonaviy ilm fan insonining bir sekundda ikki yarim marta ko'zini yumib ochishini ta'kidlaydi. Bu esa inson bir minutda 150 marta, bir kecha kunduzda esa 216000 marta ko'zni ochib yumish mumkinligini anglatadi. Demak, xuddi „Boburnoma“da aytilganidek, bir kecha kunduzda 216 ming marta ko'zni yumib ochish mumkin ekan.

Aslida, bu asarning asl nomi „Boburiya bo'lishiga qaramasdan, uni „Voqeanoma“, „Tuzuki Boburiy“ , „Voqeoti Boburiy“ deb atashgan. „Boburnoma“ nomi esa unga keyinchalik berilgan

Bu asarni o'rganishga nisbatan qiziqish ortib, 1857- yilda birinchi marta asar to'liq holda tukolog H.U.Ilimenskiy tomonidan Qozonda Tipografiya usulida o'zining to'rt betlik nashr xususiyatlarini ko'rsatgan holda rus tilida nashrdan chiqqan. Asarning tarjima qilinib dunyo aholisi o'rganishi uchun nashrdan chiqishida H.U.Ilimenskiyning hissasi tahsinga sazovordir. Bu asarga bo'lgan qiziqish faqat shu bilangina chegaralanib qolmasdan 1905-yilda ingliz orentalistlaridan A.Beverij xonim „Boburnoma“ning Haydarobodda topilgan bir qismini sinkografiya yo'li bilan nashrdan chiqargan. Bu nashr ham to'liq nashr hisoblansada, Qozon nusxasiga qaraganda ayrim kamchiliklarga ega bo'lgan. Mana shu ikki go'zal nashrga asoslanib, 1848-1949 yillarda „Boburnoma“ning ikki qismdan iborat to'liq shakli nashrdan chiqdi va dunyo bo'ylab tarqatildi. Shundan so'ng, bu nashr ham qayta yangi o'zbek alifbosida ba'zi izohlar va geografik nomlar aniq ko'rsatilgan holda 1960-yilda yana nashr qilindi.

Buyuk Temuriylar sulolasining mard va jasur, zukko hamda bilimdon shahzodasi, maktab va islomiy madrasa ta'limini olgan Bobur ayni muchal yoshi hisoblanmish 12 yoshida og'ir judolik sabab taxtga tepasiga podshoh sifatida chiqdi, uning nomi xutbaga qo'shib o'qitila boshlandi va u keyingi o'ttiz olti yillik umrini jang-u jadallarda, g'alaba va mag'lubiyatlarda, turli mamlakatlarda Vatan sog'inchida o'tkazdi. „Boburnoma“ asari ham ayni shu davrda yaratilgan noyob javohirga aylandi. Bobur Mirzo xuddiki Abdulla Oripov ta'kidlaganidek, Navoiy hazratlaridan keyingi ulug' allomaga aylandi. Nafaqat „Boburnoma“ asari balkim bu asar orqali Bobur Mirzo hayotiga qiziqish ham ortdi. Bir qancha tilshunos olimlar Bobur hayotini chuqur o'rganib, o'z asarlarida Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegimning ham fikrlarini yoritib ketgan. Xususan, „Sohibqiron Amir Temur zamonidan Firdavsmakon Bobur hazratlari zamonigacha bo'lgan davrda eng og'ir davr Bobur hazratlarining davriga to'g'ri kelganligi“ haqida „Voqoe“ , hamda, Muhammad Solihning „Shayboniynoma“sida ham so'z boradi. Biroq shunga qaramasdan, 12 yoshli valiahdning 333 yil hukm surgan „Boburiylar sulolasi“ ga asos solganligi alohida e'tiborga molikdir. „Boburnoma“ asarining bu qadar jozibador va ta'sirli chiqqanligining yana bir asosiy sababi shundan iboratki, asar yosh shahzoda Bobur Mirzoning mashaqqatli hayot sahifalaridan olgan xulosasi asosida yozilgandir. Bobur hazratlarining behisob urushlar-u toj-u taxt uchun bo'lgan janglar ichida ham , badiiy va ma'naviy qimmatli beqiyos bo'lgan devon tartib berisghi, filologik ilmlarning eng mushkuli she'rshunoslik bilan shug'ullanib, aruz tizimi to'g'risida „„Mufassal“ degan asar yozgani, Xo'ja Ahrorga azbaroyi ixlosidan uning nasrda bitilgan „Volidiya“ asarini nazmga solib tarjima qilgani, Islomning besh arkoniga bag'ishlab, she'riy yo'lda ma'rifiy risolalar bitgani, yigirma yoshlik yigit chog'ida „Xatti Boburiy“ni yaratib, bu alifbo orqali „Qur'oni karimni“ ko'chirgani,xususan butun musulmon dunyosida ilk bor realistik uslubdagi avtobiografik memuar barpo etgani hayratlanarlidir.

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, „Boburnoma” asarida turli millat va elatlarning etnografiyasi, geografiyasi, tarixi, tabiatini tasvirlanishi bilan bir qatorda Bobur yo'l yo'lakay filologiya va din ilmi haqida ham o'z asarida ma'lumotlar yozib ketgan. Ayniqsa, Navoiy hazratlari haqida „to turkiy bila she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon ermas”, degan bir jumlasining o'ziyoq hozirgi kunga qadarkaromat singari o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Shu pirovardida, shoir:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,  
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum.

Har kim bu „Vaqoe”ni o'qur,

Bilgaykim, ne ranj-u ne mehnatnu, neg'amlarni ko'rdum.

deya „Vaqoe” da umr yo'llaridagi mashaqqatlari haqida yozib o'tadi. Asar boshqa tillarga tarjima qilinganda garchi so'zlar o'z muqobilini topa olmagan vaziyatlar bo'lgan bo'lsada, bu buyuk ijodkorning misralaridagi darni anglash qiyin emas. Bu mumtoz adabiyot javohiri nafaqat o'z zamondoshlariga balki, kelajak avlodlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Bobur o'zining „Boburnoma” asariga tovushlarning qo'llanishiga bog'liq va hatto ularda uchraydigan ba'zi jarayonlarni izohlash bilan ham tovushlar tadqiqotchisi ekanligini isbotlagan. Bu esa bizga ayni paytda o'sha so'zning , hatto ba'zi urg'ularning tarixini belgilash uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, u „mim” va „sin” ning almashinib qo'llanishini „Kashmir” nomini izohlash jarayonida juda chiroyli ifodalaydi, „bu tog' elini kasderlar ...Hindiston eli „min” ni „sin” talaffuz qilur. Chun bu tog'da mo'tabar shar, Kashmir... Bu jihatdin bo'la olurkim. Kashmir deyesh bo'lg'aylar”(Boburnoma 342-bet)

Ko'rinib turibdiki, kas aslida kam bo'lib chiqadi va Kashmir shu tog'dagi qabila nomi bilan bog'liqdir. Shunday qilib Bobur hazratlarining birgina „Boburnoma” asari bizni butun ilm ummonida sayohat qildiradi.  
XULOSA

Ko'rinib turibdiki, bizga faxrlansa arzigulik tarixni taqdim etgan Bobur hazratlarining ham hayoti oson kechmagan. Lekin shunga qaramasdan bu zot o'zidagi barcha tashvishlarni qalami ila sayratdi va go'zal asar vujudga keldi. Shu o'rinda O'tkir Hoshimovning „Ikki eshik orasi” asarida keltirib o'tgan jumalari yodimga keldi. „Inson ikki eshik orasida hayot kechiradi. Biridan kiradi-yu hayot imoratiga yo g'isht qo'yadi yoki undan bir g'isht olib, ikkinchi eshikdan chiqadi” xuddi shuningdek Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarini hayot imoratiga tilla g'isht qo'yib ketgan shaxsga qiyoslasak o'rinlidir. „Boburnoma” asarini o'rganishda O'zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlari ham bu asarning nechog'lik nodir namuna ekanligini isbotladi. Professor Fitrat tomonidan tuzilgan „O'zbek adabiyoti namunolari” xristomatiyasida „Boburnomadan parchalar, Boburning 31 ta g'azali, 2 ta masnaviysi va 28 ta ruboiysi joy olgan.

Barcha qilinayotgan harakatlar hatto hozirgacha bu asarning qiymatiga yanada qiymat qo'shib bormoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)

- 1.V.Zohidov „Boburning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida, Bobur „Boburnoma” 1990
- 2.Azimdjonova S „Indiskiy divan Babura”
- 3.Bobur ensiklopediyasi. Toshkent. Sharq. 2014
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma> Toshkent. O'qtuvchi. 2008